

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**NEMIS TILINI O‘QITISH METODIKASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	110000 – Ta‘lim
Ta‘lim yo‘nalishi:	60111800-Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili)

Chirchiq – 2023

Fan/mavzu kodi NTO'M304		O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Nemis tili o'qitish metodikasi	60	60	120	
2.	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi – talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan oliy va o'rta ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish jarayonida vazifa va mashqlardan samarali foydalanishga tayyorlaydi. Fanning dolzarbligi o'qituvchi faoliyati uchun eng zarur bo'lgan dars jarayonini samaradorligini oshirishda mashqlar va topshiriqlarning ahamiyati, ularning o'quv jarayoniga tatbiq qilishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarni chet til o'qituvchisi kasbiy faoliyatiga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat. Zamonaviy metodikaning asosiy muammolari bilan tanishtirish, darsni tashkillashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasiga, qiziqishiga oid vazifalar va mashqlar tanlashni talabalarga o'rgatish fanining asosiy vazifasi sanaladi. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Kirish. Chet til o'rganishning turli metodlari mavjud va yangi metodlar paydo bo'lish sabablari. Dalillar modeli: ijtimoiy sohada; Umumpedagogik sohada; Kasbiy sohada: Predmetga aloqador fanlar. Amaliyotda. 2-mavzu. Grammatika – tarjima metodi (GTM) Grammatika – tarjima metodi (GTM) haqida. GTM asosidagi darslik tahlili. Dars bosqichlari. Grammatikaning taqdimoti. 3-mavzu. Mashqlar Grammatikaga oid mashqlar. Nemis tiliga tarjima qilish uchun mo'ljallangan ona tilidagi matnlar. Erkin insho. Tarjima (teskari tarjima) va o'qib tushunish mashqlari uchun mo'ljallangan nemis prozasidan olingan parchalar. 4-mavzu. GTM asoslari, maqsad va metodik prinsiplari Pedagogik asoslari. Lingvistik asoslari. Adabiyot, Mamlakatshunoslik. Ta'limning nazariy asoslari. Tushunchalar izohi va maqsadi. GTM asosidagi dars prinsiplari. 5-mavzu. Bevosita metodlar (BM). Audiolingval metod (ALM)				

debochasi.

Islah harakatining tarixiy rivojlanishi. Bevosita metodlarning maqsadi. Bevosita metodlar asosidagi dars usullari va mazmuni. Bevosita metod tavsifi. Bevosita metodga asoslangan dars tuzilishi.

6-mavzu. Bevosita metod asoslari.

Pedagogik asoslari. Lingvistik asoslari. Adabiyot, Mamlakatshunoslik. Ta'lim nazariyasi. Bevosita metodga asoslangan dars prinsiplari.

7-mavzu. Audiolingval metod (ALM)

Kirish. Audiolingval metodning darsliklardagi asosiy belgilari. Audiolingval metodning texnologik yordamchi vositalari: til laboratoriyasi, ko'rish vositalari, vizual yordamchi vositalar.

8-mavzu. Audiolingval metod asoslari.

Lingvistik asoslari: strukturalizmning ta'siri va xususiyatlari. Ta'limiy psixologik nazariyalar ta'siri. Adabiyot va matn tilshunosligi. Mamlakatshunoslik. Audiolingval metod asosidagi dars prinsiplari.

9-mavzu. Audiovizual metod (AVM)

Kirish. Metodning tarixiy asosi va tushunchalarini oydinlashtirish. Audiovizual metodning dars texnologiyalari. Audiovizual metod tanqidi. Audiovizual metod va so'nggi konsepsiyalar.

10-mavzu. Bilvosita metodlar.

Chet til ta'limidagi metodlar qorishuvi. Chet tillarni o'rganishdan turli maqsadlar. Til o'rganish imkoniyati. Ta'lim sharoitining ta'lim metodlarining shakllanishiga ta'siri.

11-mavzu. Bilvosita metod qanday paydo bo'ldi?

Boshlang'ich matn. Matnning qog'ozga tushirilishi. Grammatik material tavsifi. Mashqlar. Dars qurilishi. o'quv material progressiyasi.

12-mavzu. Kommunikativ didaktikaning rivojlanishi.

Chet tillarni o'rganuvchi yangi guruhlar. Chet til ta'limiga aloqador fanlarning yangi xulosalari: lingvistika va ta'lim nazariyasi. Kommunikativ metodning asosiy yo'nalishi.

13-mavzu. Pragmatik-funksional konsepsiya

Pragmatik lingvistikanaong ta'lim yo'nalishiga ta'siri. Nutq faoliyati masalalari.

14-mavzu. Pragmatik-funksional konsepsiya xususiyatlari

Grammatik material taqsimotidagi o'zgarishlar. Mavzular va so'z boyligining o'zgarishi. Pragmatik rol va nutq vaziyatiga asoslanish. Pragmatik-funksional konsepsiyada o'quv materiali progressiyasi.

15-mavzu. Madaniyatlararo chet til ta'limi

Kirish. Guruhlarda mos mavzu va ta'lim mazmunini tanlash. O'quvchilarning qiziqishi. Universal hayotiy tajriba chet til darsidagi madaniyatlararo mavzularni rivojlantirish borasida "ko'prik" sifatida.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- chet tili o'rganishning yangi metodlari.

- chet til o'qitish metodikasi
- darsliklarning ta'lim metodlari asosida yoritilishi.
- grammatika –tarjima metodi asosida yaratilgan darslik tahlili;
- darsda grammatik mavzuning taqdimoti;
- grammatika –tarjima metodiga xos bo'lgan mashq shakllari;
- o'quv materialini metodik tashkil qilish bosqichlari;
- grammatika-tarjima metodida darsning borishi
- grammatika-tarjima metodiga xos bo'lgan mashq shakllari.
- grammatika-tarjima metodi asoslari, maqsad va metodik prinsiplari.
- grammatika-tarjima metodini tanqid.
- bevosita metodlarning maqsadi;
- bevosita metodga asoslangan dars tuzilishi;
- audiolingval metodning lingvistik asoslari;
- audiolingval metodning texnologik yordamchi vositalari;
- audiolingval metodning ta'lim prinsiplari;
- audiovisual metodga asoslangan dars texnikasi.
- audiovizual metod tanqidi.
- Bilvosita metodlar: grammatika-tarjima metodi va audiolingval metodning bir-biri bilan bog'lash.
- chet tillarni o'rganish maqsad va imkoniyatlari.
- chet til o'qitish didaktikasi va metodikasining rivojlanishi;
- chet til ta'limining pedagogik yo'nalishi;
- pragmatik-funksional didaktikaning ochiq metod konsepsiyasi: Ta'lim prinsiplari.
- chet til ta'limida guruhlariga mos mavzu va ta'lim mazmunini tanlash.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Chet tili darsini rejalashtirishda vazifa va mashqlarning tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Metodik/Didaktik prinsiplardan o'quv jarayonida foydalanish
3. Sotsial formalarining chet tili darslarida qo'llanishi
4. Chet tili darslarida "Einzelarbeit" sotsial formasidan foydalanish

5. Chet tili darslarida "Partnerarbeit" sotsial formasidan foydalanish
6. Chet tili darslarida "Gruppenarbeit" sotsial formasidan foydalanish
7. Chet til o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi
8. "Frontalunterricht" sotsial formasining salbiy va ijobiy tomonlari
9. Gapirish produktiv nutq faoliyati turi sifatida
10. Gapirishni rivojlantirishga oid o'yinlardan foydalanish
11. Gapirishga oid vazifa va mashqlarni o'quv jarayoniga tatbiqi
12. Yozish produktiv nutq faoliyati turi sifatida
13. Yozishga oid vazifa va mashqlarni o'quv jarayonida qo'llanilishi.
14. Rolli o'yinlar va ularning chet tilini o'zganishda ahamiyati
15. Erkin gapirishga oid vazifa va mashqlar
16. Chet tili darslarida "Makroprojekt" lardan unukmli foydalanish
17. Chet tili darslarida "Mikroprojekt" lardan unukmli foydalanish
18. "Gruppenarbeit" sotsial formasidan dars jarayonida foydalanganda o'qituvchining funksiyasi
19. "Autogrammjadg" metodining o'quv mashg'ulotida qo'llanilishi
20. "Karussel" metodining o'quv mashg'ulotida qo'llanilishi
21. Tinglovchi "Nemis tilini o'qitish metodlari – yondashuv va pedagogik texnologiyalar" moduli bo'yicha mustaqil ishni quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi.
22. O'quv va ilmiy adabiyotlardan, internet manbaalardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish.
23. Maxsus adabiyotlardan foydalangan xolda modul mavzulari bo'yicha topshiriqlar ustida ishlash.
24. Xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarga asoslanib, interaktiv o'qitish usullaridan amaliy foydalangan holda dars ishlanmasi tuzish.
25. Aralash til o'rganishga kirish: raqamli o'rganishning shakllari.
26. Birgalikda yozish ko'nikmasini shakllantirish
27. Birlashgan dars loyihalari.
28. Darslarda ilovalardan foydalanish.
29. Darsni rejalashtirishdagi sakkizta asosiy savollar.
30. Darsning qaysi qismida raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin?
31. Loyihalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchining vazifasi. Loyihalash ko'nikmasini mustahkamlash
32. Madaniyatlararo yo'naltirish orqali darsni qanday tashkil qilsa bo'ladi?
33. Madaniyatlararo kompetensiya va ijtimoiy axborot vositalari.
34. Manbalarni qanday qilib saqlab olish mumkin.
35. Mualliflik huquqi bo'yicha ko'rsatmalar.
36. Mustaqil o'rganishni targ'ib qilish
37. Mutanosiblik nima?
38. Ommaviy axborot vositalari qay holda targ'ib qilinadi.
39. Raqamli axborot vositalaridan dars paytida foydalanishdan qanday maqsadlar ko'zda tutilgan?
40. Raqamli axborot vositalarini kundalik hayotimizda tutgan o'rni.

41. Raqamli dars ketma-ketligi loyihalarining rivojlanishi.
42. Raqamli texnologiyalar asosida o'tiladigan darsga kirishda manba va dasturlar qaerdan topiladi?
43. Raqamli texnologiyalar asosida o'tiladigan darsga kirishda manba va dasturlar qaerdan topiladi? Raqamli texnologiyalarning boshlanish fazasini rivojlanishi.
44. Texnik jihozlar. Texnik jihozlarning o'quv manbalari sifatidagi roli.
45. O'zaro ta'sirga yo'naltirish qanday baholanadi? O'zaro ta'sirni tadbiq qilish
46. O'qish va o'rganishning mutanosibligi. Mutanosiblik nima?
47. O'qish uchun optimal atrof-muhiti
48. O'quv materiallari to'plangan raqamli qo'shimcha materiallar.
49. O'rganuvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida faollashtirish qanday baholanadi?
50. O'rganuvchilarni faollashtirish. O'rganuvchilarning erkinligi qanday ko'rib chiqiladi?
51. O'rganuvchilarning erkinligi qanday baholanadi?
52. O'rganuvchilarning erkinligi qanday ko'rib chiqiladi? O'rganuvchilarning erkinligi qanday baholanadi?
53. Hamohanglikning 4 ta asosiy turi.
54. Harakatga yo'naltirilgan til darslari
55. Darslar ketma-ketligini to'g'ri tashkillashtirish
56. Birgalikda yozish ko'nikmasini shakllantirish
57. Loyihalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchining vazifasi
58. Loyihalash ko'nikmasini mustahkamlash
59. Chet tili darslarida loyihalar ustida ishlash
60. Og'zaki vositalarining shakllari va vazifalari va ularni hayotga tadbiq etish.

V. Kurs ishini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

«Nemis tili o'qitish metodikasi» fani bo'yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda tanlagan mavzusi bo'yicha adabiyotlarni, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlari faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo'llay olishdan iborat.

Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish ya'ni, umumumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonga bog'liq holda ishlab chiqiladi va har bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi

Shuning uchun ham o'qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirish uchun o'quv rejasida ajratilgan 4 soat ichida kurs ishining mohiyati, tadqiqot olib borish usullari va adabiyotlar bilan ishlash, ya'ni ularda masalaning qo'yilishi, nima ish qilinganligi, ularning mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

- talabada tanlangan mavzu bo'yicha o'z nazariy bilimni chuqurlashtirishi;
- psixologik-pedagogik, metodik va o'quv materiallarini tahlil qilish malakasini o'zlashtirishi;
- pedagogik eksperimentni rejalashtirishi, tayyorlashi va o'tkazishi;
- eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi;
- nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egalashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarning ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo'lg'usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o'quv yilining boshida shu o'quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o'zini qiziqtirgan mavzuni tanlab olgandan so'ng, bu mavzu bo'yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun kafedraga taqdim etadi. Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so'ng kafedra unga ilmiy rahbar tayinlaydi. Talaba kurs ishini o'z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajaradi.

Kurs ishi mavzulari

1. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha ilg'or tajribalar
2. "Chet til o'qitishda umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash (CEFR)" fani bo'yicha baholash turlari va shakllari
3. Chet til darslarida interfaol o'qitish usullari, zamonaviy metodlarni tadbiq qilish
4. Chet tillarni o'qitishda o'quv materiallaridan foydalanish
5. Chet tilini o'qitishda mavzuga oid matnlarni topish, tanlash va tadbiq qilish
6. Chet til darslarida retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirish
7. Chet til darslarida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarni shakllantirish
8. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha ilg'or tajribalar
9. Chet til darslarida lug'atdan foydalanishni o'rgatish
10. Mustaqil ish. Sinov darsini tayyorlash
11. Mustaqil ish. Sinov darsi taqdimoti
12. Chet tili darsini rejalashtirishda vazifa va mashqlarning tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.
13. Metodik/Didaktik prinsiplardan o'quv jarayonida foydalanish
14. Sotsial formalarning chet tili darslarida qo'llanishi
15. Chet tili darslarida „Einzelarbeit“ sotsial formasidan foydalanish
16. Chet tili darslarida „Partnerarbeit“ sotsial formasidan foydalanish
17. Chet tili darslarida „Gruppenarbeit“ sotsial formasidan foydalanish
18. Chet til o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi

	19. "Frontalunterricht" sotsial formasining salbiy va ijobiy tomonlari 20. Gapirish produktiv nutq faoliyati turi sifatida 21. Gapirishni rivojlantirishga oid o'yinlardan foydalanish 22. Gapirishga oid vazifa va mashqlarni o'quv jarayoniga tatbiqi 23. Yozish produktiv nutq faoliyati turi sifatida 24. Yozishga oid vazifa va mashqlarni o'quv jarayonida qo'llanilishi. 25. Rolli o'yinlar va ularning chet tilini o'zganishda ahamiyati 26. Erkin gapirishga oid vazifa va mashqlar 27. Chet tili darslarida „Makroprojekt“ lardan unukmli foydalanish 28. Chet tili darslarida „Mikroprojekt“ lardan unukmli foydalanish 29. "Gruppenarbeit" sotsial formasidan dars jarayonida foydalanganda o'qituvchining funksiyasi 30. "Autogramm jagd" metodining o'quv mashg'ulotida qo'llanilishi 31. "Karussel" metodining o'quv mashg'ulotida qo'llanilishi
3.	VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • ananaviy va zamonaviy dars o'tish uslublarini qiyosiy taxlil qilish va har bir uslubning afzalliklari va nomutanosib tomonlari bilan yaqindan tanishish; • chet tilini o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribasini amaliyotda qo'llash; • dars jarayonida turli uyin va metodlardan foydalanish • audio va video materiallardan foydalanish • interfaol texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • ijodiy ishlar yaratish.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	IX. Asosiy adabiyotlar 1. Gerhard Neuner., Hans Hunfeld. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Langenscheidt. 1993. 2. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise,

Rainer E. Wicke. Aufgaben, Übungen, Interaktion. Goethe-Institut, München. 2014

3. Michael Schart, Michael Legutke. Lehrkompetenz und Unterrichtsgestaltung. Klett-Langenscheidt. 2012

X. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021. – 458 b.
3. Ute Koithan u.a. Aspekte B1 Langenscheidt Verlag. Berlin. Deutschland. 2007.
4. Jumaniozov O. Deutsch. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 1997.
5. Nazarov S.X. Nemis tili grammatikasi jadvallarda (Die deutsche Grammatik in den Tabellen). – T.: Akademnashr NMM, 2014.
6. Michaela Brinizer, Hans-Jürgen Hantschel, Sandra Krömer, Monika Möller-Frorath, Lourdes Ros. DaF unterrichten. Basiswissen Didaktik. Deutsch als Fremd-und Zweitsprache. Ernst Klett Sprachen, Stuttgart. 2016
7. Ende K., Grotjahn R., Kleppin K., Mohr I. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. – Stuttgart: Ernst Klett Sprachen. 2020.
8. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise, Rainer E. Wicke. Aufgaben, Übungen, Interaktion. Goethe-Institut, München. 2014

Axborot manbaalari

1. <http://www.deutsch.de>
2. <http://www.deutschinfo.de>
3. www.mein.deutschbuch.de
4. www.deutschlernen.de
5. www.cspi.uz

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "_____" _____dagi qarori bilan tasdiqlangan

8. Fan/modul uchun mas'ul va muallif:
M.A.Usmonxodjayeva – CHDPU "Nemis tili" kafedrasida o'qituvchisi

9. Taqrizchilar:
X. Raximov – O'zDJTU, "Nemis tili nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida dosenti, filologiya fanlari nomzodi
S.X.Nazarov – TDPU "Yevropa tillari" kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent